



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



O‘ZBEK AYOLLARI NUTQIDA QARG‘ISH NUTQIY AKTLARINING PRAGMATIK TAHLILI

A PRAGMATIC ANALYSIS OF CURSING SPEECH ACTS IN THE DISCOURSE OF UZBEK WOMEN

Abdurasulova D.Q.

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti

Abdurasulovad185@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./PNBZ9073](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./PNBZ9073)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek ayollari nutqida uchraydigan qarg‘ish nutqiy aktlarining pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot nutqiy aktlar nazariyasi asosida olib borilib, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarning ayollar muloqotidagi namoyon bo‘lishi o‘rganiladi. Ishda qarg‘ishlarning kommunikativ vazifasi, hissiy-ekspressiv yuklamasi hamda tinglovchiga ta‘sir ko‘rsatish mexanizmlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ayollar nutqining pragmatik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy akt, pragmatika, ayollar nutqi, qarg‘ish, illokutiv kuch, kommunikativ strategiya, muloqot, ekspressivlik.*

Annotation. *This article analyzes the pragmatic features of curse speech acts in the speech of Uzbek women. The study is conducted within the framework of speech act theory, examining the manifestation of locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts in women’s communication. It investigates the communicative functions of curses, their emotional-expressive load, and the mechanisms through which they influence the listener. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the pragmatic characteristics of women’s speech.*

Keywords: *speech act, pragmatics, women’s speech, curse, illocutionary force, communicative strategy, communication, expressiveness.*

Zamonaviy tilshunoslikda nutq va muloqotni pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda gender lingvistikasi doirasida ayollar nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbek tilshunosligida ayollar nutqining pragmatik jihatlari, xususan, qarg‘ish nutqiy aktlarining kommunikativ vazifalari yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tilshunoslikda pragmalingvistikaning nazariy asoslarini yoritgan bir qator tadqiqotlar mavjud. T.A. Van Deykning ishlari nutqiy faoliyatning pragmatik



xususiyatlari, asosiy pragmatik kategoriyalar, nutqiy strategiya va nutqiy akt tuzilishini o'rganishga bag'ishlangan. U tadqiqotlarida matn faqat gaplar o'zaro bog'lanishidan iborat emas, balki nutqiy aktlarning ham o'zaro munosabatidan tashkil topadi, deb ta'kidlaydi va matnning pragmatik xususiyatlari, nutqiy aktlar hamda presuppozitsiya masalalariga chuqur yondashadi. [Ван Дейк Т, 2000].

Nutqiy akt umumiy ta'riflarga ko'ra, muloqot jarayonida adresant va adresat o'rtasidagi muayyan kommunikativ maqsad (buyurish, ogohlantirish, iltimos qilish, va'da berish va b.) ga hamda jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan munosabat, shu munosabat natijasida turli xil taktika qo'llash va ma'lum bir ta'sir ko'rsatish orqali bajariladigan nutqiy harakat yoki muloqotning minimal birligidir. Nutqiy aktlar asosan 3 bosqichli, ya'ni lokutiv, illokutiv va perlokutiv harakat tarzida o'rganiladi. Muayyan shovqin, talaffuz hamda ma'nodan iborat bo'lgan lokutiv aktni sodir etishda hech qanday maqsad ko'zlanmaydi va ushbu akt fonetik, fatik va retik aktlardan tashkil topadi.

Nutqiy aktlar nazariyasining eng muhim jihatlaridan biri muayyan kommunikativ maqsad ko'zlangan va bilvosita yoki bevosita qo'shimcha propozitsiya ifodalovchi illokutiv aktlardir. Har qanday illokutiv maqsad adresatga nisbatan nutqiy ta'sir uslubi yoki imkoniyatini bildiruvchi illokutiv kuch asosida voqelanadi. Ushbu illokutiv kuchni to'g'ri anglanishi esa J.Serl tomonidan shakllantirilgan IFIDs-Illocutionary Force Indicating Devices (Illokutiv Kuchni Ko'rsatuvchi Vositalar) va felicity conditions (muvaffaqiyat shartlari) ga bog'liq [Searle J, 1969].

Eng mukammal tasnif sifatida baholanuvchi illokutiv nutqiy aktlar J.Serl tomonidan taklif etilgan bo'lib, unda olim nutq aktlarini muayyan guruhlarga ajratishdagi 12 ta maxsus mezonlarni ishlab chiqqan. Shunga ko'ra, reprezentativ yoki assertiv (nutqiy tuzilmaning rostligini tasdiqlovchi aktlar), direktiv (buyruq, iltimos, ogohlantirish, savol kabi undash aktlari), deklarativ (muayyan holatni o'zgartirishga qaratilgan aktlar), kommissiv (va'da berish va boshqa turdagi majburiyat aktlari) va ekspressiv (aktantning psixologik holatini ifodalovchi aktlar) kabi nutqiy akt guruhlari shakllantirilgan. Nutqiy aktlar nazariyasining dastlabki guruhi reprezentativ yoki assertiv aktlar bo'lib, ularda asosiy maqsad so'zlovchini talaffuz etilgan propozitsiyaning rost yoki yolg'on ekanligiga ishonirish va xabar mazmunini ifodalashdir.

O'zbek ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari M. Hakimov tomonidan tahlil qilingan. Unda lingvistik tadqiqotning pragmatik aspekti nutq subyekti bilan bog'lanishi, shaxs va uning ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan barcha nutqiy ifodalar pragmatik tadqiqot obyekti sanalishi qayd etilgan. Lingvopragmatik tahlil o'ziga xursandlik, achchiqlanish, hayratlanish, ajablanish, e'tiroz, buyruq,

iltimos, maqtanchoqlik, mensimaslik, kinoya, kesatiq kabi ma'nolarni qamrab olishi ko'rsatib o'tildi. Matnni lingvistik pragmatika tamoyillari asosida o'rganib, ochiq va yashirin (eksplitsit va implitsit) shaklda ifodalanadigan mazmunlarning o'ziga xos qonuniyatlarini ko'rsatib berdi. Ularning semantik, sintaktik, presuppozitsion va pragmatik xususiyatlariga doir qoidalarga aniqliklar kiritilgan [Хакимов М, 1996]. O'zbek tilshunosligida bolalar muloqotida nutqiy akt turlarining voqelanishi, deysis va presuppozitsiyaning leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi, konnotatsiyaning yuzaga chiqishi masalalari M. Qurbonovning doktorlik dissertatsiyasida tadqiq etildi [Курбонова М, 2018].

O'zbek ayollari nutqida uchraydigan qarg'ishlar illokutiv funksiyasiga ko'ra uch asosiy turga bo'linadi. Ularning har biri ayolning kommunikativ intensiyasi, hissiy holati va nutqiy maqsadini ifodalashda turlicha pragmatik yuklama hosil qiladi.

1. Hissiy-emotsional qarg'ishlar nutqiy aktlari.

Bu turdagi qarg'ishlar ayolning ayni paytdagi keskin hissiy holati g'azab, alam, ranjish, hafsalasi pir bo'lish kabi kechinmalarini bevosita ifodalaydi. Misollar:

“Yo'q bo'lsin!”, “Qurib ketsin!”, “Ado bo'lsin!”

“Basharasi qursin!” **“Basharang qursin! Qayoqdan keldi nu so'xtasi sovuq. Shu kuniyam holi qo'yishmaydi.”** (ikki eshik orasi 153-bet)

“O'lsin” **“-O'lsin, motor o't olmayapti!-dedi yonimga cho'nqayib. MTCda o'zimdanda boshqa hech zog' qolmadi. Nima balo, bular meni erkak deb o'yladi, shekilli!”**

“Oq sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sovurdim” deb yig'labdi.

Buning mazmuni ko'pincha tinglovchini emas, balki so'zlovchi ayolning ichki holatini aks ettiradi.

2. Yo'naltiruvchi (direktiv) qarg'ishlar nutqiy aktlari.

Bu turda ayol qarg'ish orqali bilvosita ta'sir o'tkazish, tinglovchini o'z xatti-harakatini o'zgartirishga majbur qilish, unga bosim o'tkazish yoki ogohlantirishni ko'zlaydi.

“Ko'zing ko'r bo'lsin!” “Qo'ling akashak bo'lsin!” kabi.

- Ana! - Kelinoyi tag'in shang'illadi. - Sizning eringiz o'tiningizgacha yorib beradi. Maniki bo'lsa, bir paqir suv olib kelmaydi, qo'lgining sinib, akashak bo'lgur. Uyim-joyim deb bo'ynini egmaydi, bo'yniginang kesilgur, eshshak! Xudoyo bo'yniginang hazrati Alining qilichida kesilmasa, u dunyo-bu dunyo rozimasman-a!

Bu qarg'ishlar nutq egasining ta'sir o'tkazish strategiyasini namoyon etadi.

3. Tinglovchiga ta'sir qiluvchi (va'da-xatar xarakteridagi) qarg'ishlar nutqiy aktlari.

Bu turdagi qarg'ishlar kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatni va'da qilish yoki “qaytish”, “javob bo'lish” kabi diniy-axloqiy asoslangan tushunchalar

orqali ta'sir ko'rsatadi. Nutqda bu kabi qarg'ishlarni qo'llash orqali tinglovchini qo'rqitish, ogohlantirish, nazoratga olishga erishiladi.

Misollar: **“Xudodan qaytsin!”** *Unsin piyoladagi loyqa suvni darrov ichdi va xiyla yengil tortganday bo'ldi. — Mendan qaytmasa xudodan qaytsin... Ota-onam borishimni harna ertaroq eshitsa, harna ertaroq suyunsa... Nodirmohbegim yana kaltaklanishidan hayiqmay, Ganjiravonga bir xizmatkorini yubordi. Biroq Unsin peshingacha yetmadi — uzildi.*

Qarg'ishlarda o'lim oshkora (“O'liging chiqsin”, “qiz o'lgur” kabi), yoki metaforik usul bilan (“Og'zingdan qoning kelsin”, “Qo'shmozor bo'lgur” kabi) ifoda etiladi. Qarg'ishlarni nutqda qo'llashdan asosiy maqsad suhbatdoshga ta'sir qilishdir. O'zbek xalq qarg'ishlari maqol va matallardek uzoq va puxta o'ylangan dono mulohaza sifatida emas, balki inson ruhiy holati sifatida tinglovchiga (qarg'aluvchiga) asosan og'zaki nutq orqali yetkaziladi. Bunda qarg'ovchi – qarg'ish subyekti bo'lsa, qarg'ish yo'naltirilgan shaxs – uning obyekti sanaladi. Odatda, qarg'ishlar qisqa shaklda, buyruq-istak maylidagi fe'llar vositasida (masalan, “*Qo'lin sinsin*”, “*Kosang oqarmasin*”, “*Baloga yo'liqqur*” kabi) ifoda etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek ayollari nutqida qarg'ishlar asosan illokutiv kuchga ega bo'lib, hissiy-ekspressiv va yo'naltiruvchi xususiyatga ega. Ayollar muloqotida nutqiy aktlar ko'pincha hissiy-ekspressiv bo'lib, nolish, shikoyat, norozilik va bilvosita qarshilik strategiyalari ustunlik qiladi. Qarg'ishlar ko'pincha bilvosita qarshilik, norozilik yoki psixologik himoya vositasi sifatida ishlatiladi. Ular madaniy qadriyatlar, diniy e'tiqodlar va ijtimoiy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, ayollar nutqida qarg'ishlar erkaklar nutqiga nisbatan ko'proq emotsional ifoda kasb etadi. O'zbek ayollari nutqida qarg'ish nutqiy aktlari muhim pragmatik vosita hisoblanadi. Ular yuqori hissiy-ekspressiv yuklamaga ega, tinglovchiga kuchli ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy-madaniy me'yorlar bilan bog'langan va bilvosita ta'sir strategiyasini ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. Ван Дейк Т. Язык. Познание. Коммуникация. – БГК им. И.А. Бодуен де Куртене, 2000. – 311 с.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика: монография. – Тошкент, 2008. – Б.80
3. Searle J. A theory of speech acts. Published by the Syndics of the Cambridge University Press. First published 1969.
4. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри...дисс. –Тошкент, 2000. – Б. 235 .
5. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номзоди... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 28.

6. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 176 .
7. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. ф-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 238 .
8. Shamaxmudova A.F. Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqelantiruvchi sotsiopragmatik omillar (ispan tili misolida) Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss.avtoreferati. – Toshkent, 2023. 24-b.
9. Asadov, M. T. (2021). Fransuz-o ‘zbek tarjimachiligi istiqbollari. *O ‘zbekiston: til va madaniyat*, 1(3), 125-134.
10. Kenjayeva D. “BOBURNOMA” DA ANTROPONIMLARNING ETIMOLOGIK O ‘ZIGA XOSLIGI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1.
11. Khakimova M. The human factor in the formation of abstract vocabulary. // [Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities](#), 2021. № 11. - P. 124-126.
12. Komilova, G. R., & Xolmanova, Z. (2020). *Formation and development of axiolinguistics. International Journal on Integrated Education*, 3(9), 128–131. <https://doi.org/10.31149/ijie.v3i9.602>
13. Mukhammadiyeva, D. (2022). Principles of translating the proverbs and adages in “Baburname”. *Turkology*, (1).
14. Urazova Iqbol, Parvin Salihi. [Research of Turkish Written Sources of The 2nd Half of The 14th Century](#). [Research of Turkish Written Sources of The 2nd Half of The 14th Century](#)
15. Xolmanova, Z. T., Shamsiyeva M.B. 2022. “Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2 (1): 6-13
16. Рашидова, Н. Б. (2017). Аффиксация как один из способов словопроизводства терминов сферы образования. In *Язык и литература в поликультурном пространстве* (pp. 72-75).
17. Zulkhumor, K. (2021). Semantics and lingu-culturological features of old uzbek lexemans. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 488-497.
18. К М. [«Kutadgu bilig» metnindeki eş sesli kelimelerin bedif ehemmiyeti](#). *Uluslararası Türk Dili kurultayı*, 161
19. В Abdushukurov, L Aralova Turkish assimilation words in Russian language - *Asian Journal of Multidimensional Research*, 2021